

SO‘Z JILVASI

Feruz BURXANOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti dotsenti, PhD

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15877931>

Annotatsiya. Maqolada ijodkorlik, ijodiy jarayon, badiiy so‘z qudrati, she‘rning estetik ta‘sir kuchi haqida so‘z yuritiladi. Yosh, iste‘dodli shoir Shahriyor Shavkat she‘riyatining mavzu ko‘lami, g‘oyaviy-konsepsiyasi o‘rganilib, ijodida insonparvarlik, muhabbat va sadoqat, jumardlik g‘oyalari yetakchilik qilishi, optimistik ruh ustuvorligiga tahlillar bilan asoslanadi. Shu tariqa ijodkorning adabiy jarayondagi o‘rni, poetik mahorati va uslubiy o‘ziga xosligi tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: Badiiy ijod, badiiy tasvir vositalari, ijodkorlik, istiora, she‘r, shoir, tuyg‘u, kechinma, lirik qaramon, ruh holi, obraz, ramziy-majoziy mazmun.

Аннотация. В статье рассматриваются творчество, творческий процесс, сила художественного слова, эстетическое воздействие поэзии и её просветительское значение. Исследуются тематический охват и идейно-концептуальная основа поэзии молодого талантливого поэта Шахрияра Шавката. Анализируется ведущая роль в его творчестве идей гуманизма, любви и преданности, благородства, а также преобладание оптимистического настроения, что обосновано анализом. Таким образом, изучаются место поэта в литературном процессе, его поэтическое мастерство и стилистическая самобытность.

Ключевые слова: Художественное творчество, средства художественного изображения, креативность, метафора, поэзия, поэт, чувство, переживание, лирический герой, душевное состояние, образ, символично-метафорический смысл.

Annotation. The article discusses creativity, the creative process, the power of literary expression, the aesthetic impact of poetry, and its cultural significance. It examines the thematic scope and ideological concept of the poetry of the young and talented poet Shahriyor Shavkat, emphasizing the leading role of humanism, love and devotion, and the spirit of generosity in his work. Through analysis, the article substantiates the predominance of an optimistic spirit in his poetry. In this way, the poet's place in the literary process, his poetic mastery, and his unique stylistic approach are studied.

Keywords: Artistic creativity, literary devices, creativity, metaphor, poetry, poet, emotion, inner experience, lyrical hero, state of mind, imagery, symbolic-allegorical meaning.

Ijodkorlik – ilohiy ne‘mat, yaratuvchilik esa kashf etish demakdir. Shoir va yozuvchilar olamning, hayotning, yashashning mohiyatini anglatuvchi muallimlar, qalb tuyg‘ulari, dil izhorlari bilan kitobxonga estetik zavq beruvchi so‘z san‘atkorlaridir. O‘zlikni anglash, insoniylikni ulug‘lash, ma‘naviy teranlik, qalb pokligini targ‘ib etuvchi ko‘ngil kuychilari, poklovchilardir.

Ma‘lumki, she‘r ilhom, tuyg‘u, zavq, alam, og‘riq va darddan yaraladi. Shoir eng avvalo o‘z qalbini, o‘zligini taftish etadi. Uni turli poetik vositalar yordamida majoz, metafora, qiyoslar bilan sayqallab ifodalab beradi. Yasama tuyg‘u, sovuq aql, siyosiy-mafkuraviy g‘oyalar asli kechinmadan yaralgan sof tuyg‘uga, she‘rga uning

estetik jozibasiga, nafosatiga putur yetkazadi. Zero, she'r shoirning sof qalb kechinmalari mahsuli o'laroq, jonli, ta'sirchan, samimiyligi bilan yashovchan va yuqumli bo'ladi. O'quvchining qalb torlarini chertib, beqiyos zavq-shavq bag'ishlaydi, uni kechinmadoshlikka undaydi va shu asnoda katarsis jarayonini hosil qiladi. Kitobxonni ma'naviy poklanishiga yo'l ochadi. Uning ma'rifiy qiymatini yuksaltiradigan, yashovchanligi, umrboqiyiligini ta'minlaydigan omil ham shu, aslida. Shu jihatdan badiiy ijod inson tuyg'ularigagina emas, tasavvur va tahayyol olamini kengaytirishga, yoritishga ham xizmat qiladi.

Azal-azaldan nazm sharq adabiyotida baland mavqega ega bo'lib, boshqa adabiy tur va janrlarga qaraganda keng taraqqiy etgan. Mumtoz she'riyatimizdagi yetakchi tamoyillar, vazn va qofiya, she'riy san'atlar, badiiy tasvir vositalari, ko'chim va majozlar xilma xilligini o'zida ifolagan, umumbashariyat ma'naviy mulkiga aylangan nazmiy merosimiz buni isbotlaydi. M.Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Mavlono Atoiy, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy, Furqat, Muqimiy, Cho'lpon, Fitrat, Hamid Olimjon, Zulfiya, Oybek, G'afur G'ulom, Rauf Parfi, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Faxriyor, Usmon Azim, Azim Suyun, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdieva, Shavkat Rahmon, Omon Matjon, Sirojiddin Sayyid, Eshqobil Shukur, Iqbol Mirzo, Abdulla Sher, Abduvali Qutbiddin, Bahrom Ro'zimuhammad, Ulug'bek Hamdam kabi ijodkorlarimiz tomonidan yaratilgan badiiy mukammal asarlar, insoniylikni ulug'lovchi she'rlar ma'naviyatimizda o'chmas iz qoldirgan nazmiy durdonalar sanaladi. Shunday buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lishga intilayotgan yosh, iste'dodli shoirlardan biri Shahriyor Shavkatdir.

Iste'dodli shoir Xurshid Davron o'z sahifasida *Shahriyor Shavkatni bugungi she'riyatimizning yosh avlodiga mansub shoirlar ichida alohida o'ringa egaligi haqida to'xtalib: "Uning she'rlarida o'z yo'lini tirishqoqlik bilan izlayotgan ijodkor nafasini sezasiz..."¹ deya yozadi.* Darhaqiqat, shoir ijodi bugungi adabiy jarayonda o'zining inja tuyg'ulari, o'ziga xos topilmalari, original o'xshatishlari, timsollari, o'z so'zi va uslubi bilan munaqqidlar e'tiborini tortmoqda. Shoir she'rlarining o'ziga xosligi kitobxon tuyg'usiga ta'sir qila olishida, zavqini uyg'otib, kechinmadoshga aylantira olishidadir. Bugungi globallashuv jarayonida zavqsizlik, fikrsizlik, iste'molchilik avj olayotgan bir davrda kitobxonxonga zavq-shavq bera oladigan, ruhini uyg'otadigan, ezgu maqsadlar sari yo'llantira oladigan she'riyat har qachongidan ham zarur. Badiiy estetik so'z qudratini, uning kuchi va sehrini yaxshi

¹ Bu haqda qarang: <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yoshlar/shahriyor-shavkat-yangi-she'rlar-2.html>

anglagan shoir she'rlarida optimistik ruh yetakchilik qiladi. Shoir nazdida adabiyot va she'riyat insonda ezgu tuyg'ularni uyg'otishi, unga ruh bag'ishlashi va qalbni nurlantirishi kerak. Shu ma'noda Shahriyor she'rlarining g'oyaviy mazmunida yuksak insonparvarlik, muhabbat va sadoqat, jumardlik g'oyalari yetakchilik qiladi. Shoir ijodining mavzu ko'lami rang-barang bo'lsa-da ishq-muhabbat motivlari bilan sug'orilgan she'rlar ko'lami keng. Bunda, albatta, shoirning ruhiy-biografik holati, yosh xususiyati ham ta'sir o'tkazishi tabiiy. Zero, shoirning o'zi ham ayni yoshlik davrining zavq-shavqqa limmo-lim, sururli bir davrini yashayotir.

Zavqsiz inson hasbi holini shoir tug'ulmagan insonga, ruhsiz tangaga qiyos etadi. Da'vatkor misrlari bilan mudroq ruhni uyg'otishga, zavq tuyishga, yashashga chorlaydi.

*Hali siz dunyoga kelganingiz yo'q,
Hali siz go'daksiz
va yoki holsiz,
pastqam bir kulbada beshon, behuquq,
alahsirab yotgan mudroqi cholsiz!²*

Ushbu parchada zavqsiz inson hasbi holini avval dunyoga kelmagan insonga, so'ng go'dakka, holga, cholga qiyoslash orqali butun umri g'aflatda o'tayotgan inson va uning holati tasvirini kuchaytirib boradi. O'z navbatida shoir tashbihi aks, ya'ni teskari o'xshatish, qarshilantirishdan ham unumli foydalanib, go'dak va cholni, yo'qlik va holni qiyoslaydi.

Shoirning yomg'ir haqida yozgan she'ri suyukli yori shoira Nozima Habibullaevna she'riga nazira tariqasida bitilgan³. She'rda badiiy tasvir vositalar, she'riy san'atlar, tashbih betakrorligi, istioralar me'yoriga yetkazilib qo'llanganligi bilan ahamiyatlidir. Muallif yomg'irni yoqtirgan, tomchilar navosini tinglay olgan inja tuyg'uli mahubasining hasbi holini, yuragini obu-havosini anglamagani, his etmaganidan nola chikib shikoyat qiladi. Shoir talmeh san'ati asosida o'zini buyuk musiqachi, kompozitor va pianinachi Betxoven emasligidan afsus chekib, yor ko'zida so'zib yurgan notalar va ritmning muallifi bo'lolmayotganidan nola qiladi. Ijodkorlik, xususan, shoirlik so'z san'ati ekanini, ijodkorlarga xos xususiyatlar ularning hayotiy a'moli, badiiy so'z, bilan uzviy bog'lanishini, so'zning qudrati va yaralishi ibtidoaga borib taqalishini obrazli, beqiyos metaforalar orqali husni ta'lil san'ati asosida nozik ifodalaydi.

*Ko'zingizda notalar suzar,
So'z oqadi tomirimda, So'z!*

² <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/shahriyor-shavkat-1998/>

³ Shoir Shahriyor Shavkat bilan ijodiy uchrashuvda muallif ushbu sherini shoira Nozima Habibullayeva she'riga nazira shaklida yozilganini armug'on ekanini bayon qilgan

*Bilamanki, yomg‘irdek kelib,
Bir inja, bir foram, bir nafis,
Yuzimda, labimda, sirg‘alib,
Kuy chalmaydi
Barmoqlaringiz!..⁴*

Tomirda so‘z oqish mumkinmi?! Ushbu baytda shoir mubolag‘aning g‘uluv darajasidan foydalanib, aql bovar qilmaydigan holatni, badiiy manzarani tasvirlar ekan, ijodkorlik tabiyatini so‘z bilan bog‘laydi va noyob tasvirga erishadi. Bu istiora orqali shoir ibtidoaga ishora qiladi. Ma‘lumki, olam va odam yaralishidan oldin ilohiy kalom, So‘z paydo bo‘lgan. Shuningdek, shoirlik qismatga aylangan lirik qahramonning tabiati, ruhiyati, a‘moli, maqsad intilishlari so‘z vositasida voqealanishini, hatto tomirlarida qon emas, so‘z oqishini, she‘r, so‘z, nafas, ruhiga, qoniga singganini ifodalaydi. Shoir “*Bir inja, bir foram, bir nafis* deya tansiq as-sifat hamda tanosub san‘atidan foydalanib, noziklikka yaqin tushunchalar inja, foram, nafis so‘zlarini ketma-ket tarzda qo‘llab, keng ko‘lamda obrazli ifodalar va holatlar yaratishga erishgan. “*Yuzimda, labimda, sirg‘alib, Kuy chalmaydi Barmoqlaringiz!..*” misralarida mahbuba barmoqlarini kuy chalmasligini asl ma‘nosida emas, kinoya asosida oshiqning qalb ozorini mahbubaning befarqligiga ishora qilyapti. Lirik qahramon ruhi sevikli yori ruhiga payvand emasligidan iztirob chekadi.

*Bilamanki, barchasi behud,
Behudadir hislarim shavqi,
O‘rtamizda tafovut mavjud,
Tafovutki sukut va shovqin...
Kechikkanman, bo‘lar ish bo‘lgan,
Sizda shodlik, menda esa dard.
Ko‘nglingizni mavh etib olgan
Mendan avval aldoqchi Motsart!..⁵*

Shahriyor she‘riyatida qarshilantirish, oksyumoron (muqobala, tazod) san‘atida lirik qahramonning ruhiy holatini emotsional tasvirlash, ta‘sirchan badiiy lavhalar yaratish maqsadida unumli foydalaniladi. Yuqorida keltirilgan she‘riy parchada *sukut va shovqin, shodlik va dard*, oshiq lirik qahramon va raqib dunyo musiqa san‘ati taraqqiyotida katta o‘rin tutgan avstriyalik kompozitor Volfgang Amadey Mosart qarshilantiriladi. Shoir bu o‘rinda talmeh san‘atidan zidlantirish asosida foydalanadi. Musiqa, ritm, ohangga maftun yor ko‘ngliga boshqa ishq sig‘masligidan ozorlangan lirik qahramon “*Siz yomg‘irni yaxshi ko‘rasiz, Motsartni, notani,... menimas*”, degan

⁴ <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/shahriyor-shavkat-1998/>

⁵ <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/shahriyor-shavkat-1998/>

xulosaga keladi. She’rda yomg‘ir, kuy, daho kompozitor va musiqachilarning poetik obrazlari, yor va lirik qahramonning ruhiy holati, orzu-umidi, armon va dardlarini yortishga xizmat qilgan. Ma’shuqa qalbining ohangga hamohang, shu ishqqa limmo-lim ekani, yomg‘ir tomchisidan poklanish, ohangidan zavqlanish ilohiy ishqqa muhtalolikning ramziy ifodasidir.

Izlanish pallasida bo‘lgan shoirning “Yolg‘izlik” she’ri nomlanishi va mazmunida nomuvofiqlik bor. She’rda yor vasliga erishgan lirik qahramonning holati, kechinmalari ochiq yalong‘ich ifodalar bilan tamsil san’ati asosida tasvir etiladi. Bunday yaloch tasvirlar kitobxon ma’naviy-axloqiy jihatlariga ta’sir o‘tkazib, estetik didini o‘tmaslashtirib qo‘yadi. Asl fitratiga nafosat, go‘zallik va axloq singan adabiyotda bunday ochiq, pardasiz tasvirlar noo‘rin, nazarimizda. Zero, “she’riyatning bir talabi she’riy san’atlarning nafosat qoidasiga muvofiqligida, *har qaysi badiiy lavha, timsolning o‘quvchida go‘zal his-tuyg‘ular, tasavvurlar uyg‘otishi zarurligida*”⁶ ekani shoyan haqiqatdir.

*Barmoqlarim botar pushtirang
Libosing chirmashgan belingga.
Avval yerga qaraysan arang
Va menga...
Yelkamdan sirg‘alar qo‘llaring,
Atringga liq to‘ladi o‘pkam.
Menga qanday jodu yo‘llading –
O‘pganim-o‘pgan?!
Butun umr yashashga shoshdik,
Kipriklardek yaqindir visol.
Bir lahzada mangu tutashdik –
Shu holingda qol...⁷*

Shoir bir she’rida ijodiy jarayondagi psixologik kayfiyatini bayon qilar ekan, o‘zini shoir emas, izlanuvchi, yo‘lovchi, dunyoni o‘rganuvchi ekanini yozadi. Shoir o‘zini “raso inson” ham deb hisoblamaydi va o‘zlikni anglamoq uchun o‘zgalarga “yuborilgan parcha imkon” ekanini ta’kidlaydi. Bu parcha imkonni shoirning anglamlari va tuyg‘ulari hosilasi sifatida yaralgan she’rlar aks ettiradi.

*Poyonsiz bo‘shliqda adashar idrok,
Obro‘ deb ruhingni qiynamoq nechun?!
Menga hamroh kerak fikru zikri pok
Eng toza turkular kuylamoq uchun!⁸*

⁶ Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. Т.: Шарқ нашриёт матбаа, 1999. – Б. 7.

⁷ <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/shahriyor-shavkat-1998/>

⁸ <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/shahriyor-shavkat-1998/>

Shoir poyonsiz bo‘shliqda o‘z yo‘lini yo‘qotmaslikka urinadi, shoirlik ko‘ngil ishi, ruh holi tajassumi ekanini ifodalab, maddohlik haqiqiy ijodkorlik emasligini, bunda ijodkor ruhi ozorlanishini to‘g‘ri ta’kidlaydi. Tajohuli orif san’ati asosida cheksiz olamda sarson shoir idrokini, mashhurlik, obro‘ga intilayotgan ruh holini obrazli iboralar orqali tasvirlaydi. Ijodkorning asl maqsadi o‘zgaligini nechun xitobi ila bilib, bilmaslikka oladi. Va hayot yo‘lida pokiza qalb-tuyg‘uli hamroh so‘rab, iltijo qiladi. Uylamizki, shoirning umr yo‘ldoshi shoira Nozima Habibullaeva xuddi Hamid Olimjonning Zulfiyasi, Oybekning Zarifa Saidnosirovasi singari umr va ijod yo‘lida Olloh tomonidan berilgan hamnafas hamrohi, ilhom manbai, fikrdoshi bo‘ladi. Ijodkorlarimizga ijodiy parvozlilar, yaratgan asarlariga umrboqiylik tilaymiz. Umid qilamizki, ular yaratgan she‘rlar adabiyotimizning bebaho xazinasiga aylanib, insoniyat ma’naviy olamini nurlantiradi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2015. –B.354.
2. Quronov D, Mamajonov Z, Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr, 2010. –B. 400.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. – B. 480 b.
4. Хожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. Т.: Шарқ нашриёт матбаа, 1999. – Б. 240.
5. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=v47kHwYAAAAJ&citation_for_view=v47kHwYAAAAJ:IjCSPb-OGe4C
6. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
7. Burhanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma'rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
8. RAJABOVA, Hulkar. "Qissada ekzistensial qahramon va uning jonzodlar bilan yashash motivi (Shuhrat Matkarimning “Maqar” qissasi misolida)." «*ACTA NUUZ*» 1.1.2. 1 (2025): 318-320.
9. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.
10. Abdujamilovna, Kalandarova Dilafruz. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
11. Kadirova M.N., Innovative methods for improving the methodology of teaching folklore in literature lessons. AmericanAcademicpublishers, volume05, issue05, 2025. [INNOVATIVE METHODS FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING FOLKLORE IN LITERATURE LESSONS | International journal of artificial intelligence](#)